



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
**HIKOYA JANRIDA YOZUCHI USLUBI VA KINOYA: AZIZ
NESIN IJODIDA**

Egamberdiyeva Gulhayo

Qoraqalpoq davlat universiteti

Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi Aziz Nesinning hikoyalarida yozuvchi uslubi va kinoya ifodasining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. "Oyga boramiz", "Hamma gap baqirishda", "G'aroyib bolalar" kabi asarlari asosida yozuvchining ijtimoiy tanqidni hajv va kinoya orqali ochib berish mahorati yoritilgan.

Kalit so'zlar: kinoya, hikoya, uslub, tanqid, hikoya.

Kinoyaviy asar yaratishda muallif voqelik va qahramon haqida fikr bildirar ekan masalaga boshqa tomondan yondashadi. Sitseronning fikriga ko'ra, kinoya ustasi bilvosita va'z qilishni biladigan notiq bo'lishi kerak. Kinoyani qo'llovchi, ta'sir qilishning noodatiy tarafidan hammaga ma'lum usulda foydala olishi orqali ta'sirni orttira oladi. Kinoyada faqatgina satira va yumordagi singari reallikni baholab qolmasdan istalgan ijtimoiy-ma'naviy yoki estetik holatga o'zining hissiy-g'oyaviy qarashini obyekt sifatida tanlab oladi. Asar davomida ijodkor qahramon yoki umuman voqelikdan chetda, uzilgan tarzda ularga baho beradi, qahramonning holati, chorasizligi, u tushgan vaziyatning mantiqsiz va mavhum ekanligiga hissiz, befarq qaraydi.

Hikoya janri adabiyotda eng boy va moslashuvchan janrlardan biri hisoblanadi. U qisqa hajmda bo'lsa-da, voqea, muhit va qahramonlarni ta'riflash orqali jamiyatning ijtimoiy, madaniy va axloqiy jihatlarini ochib beradi. Hikoya orqali yozuvchi o'quvchiga voqea tafsilotlarini yetkazish bilan birga, inson psixologiyasi, ijtimoiy munosabatlar va adolat masalalarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Aziz Nesin ijodida hikoya janri odatiy realizm bilan cheklanmaydi. U o'z asarlarida kinoya, ironiya va satira elementlarini faol qo'llaydi. Bu vositalar yordamida yozuvchi jamiyatdagi muammolarni yengil va kulgili tarzda ochib beradi, o'quvchida esa chuqur ijtimoiy va axloqiy mulohazalarni uyg'otadi. Nesinning hikoyalarida bolalar ko'zi bilan tasvirlangan voqealar kattalarning yolg'on, ikkiyuzlamachilik va ijtimoiy adolatsizliklarini namoyon qiladi. Nazariy nuqtai nazardan, yozuvchi uslubi – bu adabiy til, obrazlar yaratish, voqeani tuzish va qahramon xarakterini ochib berish orqali namoyon bo'ladi. Kino va ironiya esa ijtimoiy va axloqiy illatlarni ochish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, Nesinning uslubi hikoya janrida faqat voqea tasvirlash bilan cheklanmasdan, ijtimoiy tanqid va axloqiy mulohazalarni o'quvchiga yetkazishning samarali vositasi hisoblanadi.

Mazkur tezisdagi Aziz Nesinning "G'aroyib bolalar" romani va "Tayoq yemay turolmayman" hikoyalar to'plami asosida yozuvchi uslubi va kinoyaning ijodiy ifodasi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tahlil qilinadi. Ushbu asarlardan olingan misollar yordamida Nesinning hikoya janridagi yondashuvi, ijtimoiy va axloqiy tanqidni amalga oshirish uslubi, shuningdek, bolalar ko‘zi bilan ijtimoiy illatlarni ochib berishdagi uslubi yoritiladi.. Nesin o‘quvchini nafaqat voqealar rivojlanishiga, balki ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishga va axloqiy mulohazalar yuritishga undaydi. Asarlardagi bolalar ko‘zi orqali tasvirlangan voqealar, kulgili va satirik elementlar yordamida, kattalarning yolg‘on, ikkiyuzlamachilik va ijtimoiy adolatsizliklarini ochib beradi. Bu esa Nesin ijodini nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham muhim qiladi. Voqealikni badiiy tasvirlar ekan muallif ham, o‘quvchi ham bu vaziyatga tushgan bo‘lishi mumkin. Kinoya orqali tanlagan ob‘yekt maqto‘v va ma‘qullash niqobi ostida masxaralash yoki so‘roq qilish, shu bilan birga fosh qilishi mumkin. Oila muhitini va ta‘lim tizimini tanqid qilib, achchiq kinoyaga olarkan, ayni damda ularning tuzalishi kerakligiga urg‘u beradi.

Xullas, bu masala butun sinfning og‘ziga tushdi. Atigi uch bola dadasi yoshligida qanday o‘qiganligini bilmas ekan. Qolgan hamma o‘quvchilarning dadasi a‘lochi bo‘lib chiqdi. Ahmad, xatimni olganingdan keyin sen ham dadangdan so‘rab ko‘r — u kishiyam maktabda a‘lo baholar bilan o‘qigan ekanlarmi? Lekin a‘lochi bo‘lganlariga hozirdanoq ishonaman. Chunki kimni olib qarama, hammaning dadasi negadir a‘lochi bo‘lib chiqiyapti. Oradan ikki kun o‘tmagan ham ediki, bir payt Metinning o‘qituvchisi oyimni maktabga aytirib yubordi. Ma‘lum bo‘lishicha, ukamning o‘qishi pasayib ketibdi. Ishdan qaytgach, bu gap dadamning qulog‘iga yetdi. Dadam Metinni ancha koyib berdilar, keyin esa uni oldilariga o‘tqazib, yotig‘i bilan nasihat qildilar.

— Axir mendan ibrat olsang bo‘lmaydimi, o‘g‘lim? Men sendek paytimda hamma fanlardan a‘lo baho olib o‘qirdim. Biror marta ham past baho olmaganman. Sinfda mening oldimga tushadigan bola yo‘q edi. Xo‘sh, sen-chi? Uyat emasmi, axir! Nimaga o‘qishingning mazasi yo‘q? Bola degan dadasiga o‘xshashi, undan ibrat olishi kerak-da, axir.

Dadam ancha hovuridan tushgan edi, fursatni qo‘ldan bergim kelmadi:

— Qo‘yavering, dada,— dedim.

— Metin ham katta bo‘lganida bolalariga maktabda zo‘r o‘qiganman, deb aytishi mumkin-ku.

Nesin hikoya janrini qisqa, lo‘nda, ammo ma‘noga boy ifoda shakli sifatida tanlagan. Uning har bir hikoyasi o‘quvchini kuldirib, o‘ylashga majbur etadi. Yozuvchi o‘zining kinoyali uslubi orqali nafaqat oddiy voqeani, balki jamiyatning ichki illatini ochib beradi. Shu sababli, “Oyga boramiz”, “Hamma gap baqirishda”, “Ko‘zoynak sharmandasi”, “Qachon tug‘ilgan?”, “Insonlar uyg‘onmoqda” kabi hikoyalari yozuvchining ijodiy uslubi va kinoyaviy dunyoqarashini yoritishda muhim namunalardir. “Oyga boramiz” hikoyasida orzular va kamsitilgan xalq kinoyasi mavjud. Oddiy odamlarning orzulari bilan siyosiy va ijtimoiy shiorlar o‘rtasidagi tafovut kulgili, ammo achchiq tarzda beriladi. Hikoyada xalq “oyga chiqish” haqida eshitib, buni haqiqiy najot yo‘li deb o‘ylaydi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

“Ay’a gideceğiz dediler, köyün delisi bile heyecanlandı.”

“Oyga boramiz, deyishdi, qishloqning jinnisi ham hayajonlanib ketdi.”

Bu kinoyada yozuvchi xalqning oddiy, soddadil ishonchini tanqid qiladi. Ularning ijtimoiy muammolari hal qilinmay turib, “kosmik orzular” bilan ovutilishi — bu rivojlanish shiori ostidagi aldov sifatida tasvirlanadi.

“Hamma gap baqirishda” hikoyasida jamiyatdagi shovqin va bo’sh so’zlar yoritiladi. “Ko’p gapirish – kam ish qilish” holatini hajv qiladi. Insonlar muammoni hal etish o’rniga bir-biriga baqirishni, shovqin qilishni afzal ko’radi.

“Bağirmadan anlaşılmıyordu sanki. Herkes bağırıyordu.”

“Go’yo baqirmasa, hech kim tushunmaydigandek. Hamma baqirardi.”

Bu kinoya orqali yozuvchi jamiyatdagi kommunikatsiya inqirozi, madaniyatning sathiyliigi va bo’sh ritorikani ochib beradi.

Aziz Nesinning hikoya janridagi uslubi voqea tasvirlashdan tashqari, kino, ironiya va satira orqali ijtimoiy tanqidni amalga oshirishga xizmat qiladi. Nesin o’quvchini nafaqat voqealar rivojlanishiga, balki ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishga va axloqiy mulohazalar yuritishga undaydi. Asarlardagi bolalar ko’zi orqali tasvirlangan voqealar, kulgili va satirik elementlar yordamida, kattalarning yolg’on, ikkiyuzlamachilik va ijtimoiy adolatsizliklarini ochib beradi. Bu esa Nesin ijodini nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham muhim qiladi. Shu tarzda, yozuvchi uslubi va kinoya hikoya janrining samarali vositalari sifatida birlashib, o’quvchiga voqea tafsilotlarini yetkazish bilan birga, jamiyatdagi muammolarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Nesinning ijodi hikoya janrida kinoya va satiraning muvaffaqiyatli qo’llanilishini namoyon etuvchi eng yorqin namunadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aziz Nesin G'AROYIB BOLALAR Roman “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasl bosh tahririyati Toshkent – 2006: B-6
2. Aziz Nesin Tayoq yemasdan turolmayman adabiy-badiiy nashr “AKADEMNASHR” nahriyoti Toshkent – 2024
3. AZIZ NESIN HIKOYALARIDA KINOYA Gulnoza Jumayeva. O‘zbekiston, Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi II kurs magistranti. T A D Q I Q O T L A R jahon ilmiy – metodik jurnali.

